

Azamat Qorjovov. Sandiqda saqlangan sir (hikoya)

Mamadi bovaning kampiri yiqildi-yu yetmish
yildan beri birinchi marta o'z kuchi bilan
oyoqqa turmadi. Tug'ilmagan odamlar biz
bilan yonma-yon yasholmaganidek o'lganlar
ham safimizdan ketishi ko'z ustidagi qoshday
peshonaga bitilgan edi. Cholning bo'g'ziga
nimadir tiqildi. Kampir o'lsa holi ne kechadi?
Yolg'iz o'g'li Zavqiddin shahardan beri kelmasa.

— Tashlab ketma, — dedi chol unsiz.

Birov do'xtirni chaqirdi. Do'xtirning laqabi
Kaput edi. Orziposhsha momoni erinmay
tekshirgach, dahlizga chiqib bosh chayqadi.
Mamadi bovaning nazarida u shunday og'ir
damda ham piching va hazil aralash «Gitler
kaput» deganday tuyulib, g'ijini keldi.

— Davlat shuncha yil o'qitgan... — Chol hovliga
chiqqanda, ovozini ko'tardi: — Nima, bir
momoyni saqlab qololmaysanmi? Yiqilgan
bo'lsa yumronqoziq iniga oyog'i kirib yiqilibdi.

— Gap inda emas, bova, momomning yuragi
charchagan. Yiqilmaganda ham baribir...
ko'pga bormasdi. Endi, bu yog'i qarichilik.

Bardam bo'ling.

Chol uyga kirdi.

— Zavqiddinlar keldimi? — so'radi kampir
inqillab.

— Chaqirtirdim, bugun yetib kelsa kerak.
Bilasan-ku, uning ishdan qo'li tegmaydi.

— Ishdan?

— Ha, ishidan javob so'rab keladi-da.

Kampir sandig'iga boshini zo'rg'a burib qaradi.

Keyin kuchanib-emranib ko'rpacha tagidan kalit oldi.

— Mana... sandiqniki...

Mamadi bova savolomuz boqdi. Kampiri shiftdan o'lim elchisi keladigandek jimgina kutardi.

— Nima qilay buni? — dedi chol.

— Sandiqniki, — takrorladi bemor. — Olib qo'ying... Izlab yotmang deyman-da.

— E, qiziqsan... Buncha vahima qilasan?

Odamlar ayiqning iniga yiqilib omon qolayapti.

Orziposhsha momo ko'zlarini charchoq-la yumdi. Ko'rpaning bilinar-bilinmas qimirlashi uning hayotligidan darak berardi. Chol uh tortib xayolga cho'mdi. Ko'rganlari bir farzand bo'ldi. Uyam Mamadi bova qamoqda

ekanligida tug'ildi. Yolg'iz farzandining chaqaloqligini ko'rmadi ota. Eri yumshoq paxtaning qattiq qahriga uchrab hibs etilgan olis sho'ro yillarida shu kampir o'tin yorishga odam topolmay tezak yig'ib uy isitdi, ovqat qildi, kir yuvdi. Ikki yuzi qip-qizil, loursillagan xotin edi. Juda kech tug'di. Odamlar er-xotinning sadoqatiga, sabriga tasannolar aytishdi, yoshlarga namuna qilib ko'rsatishdi.

Shular tufayli o'nlab oilalar saqlab qolingandir, ehtimol. Ayrimlar «Eri qamalgan, nimasini maqtaysizlar» deb o'rlik qilsa, kattalar «Qamalganlarning hammasiyam jinoyatchi emas, zindon ham bir choh kabidir» deyishar va Mamadi bovaning oilasini ko'klarga

ko'tarishardi.

Ammo vaqt o'tgandan keyin boboning boshi egildi.

Zavqiddin bilim va shijoat bobida yuzlab tengdoshlarini ortda qoldiradigan olov yigit edi. Harbiy xizmatdan ham gul-gul ochilib qaytdi. Institut esa... shaharda bir umr qolishiga patta berdi. U qishloqda ishlolmasligini ma'lum qildi. Bu ham yetmagandek Luizaga uylandi. Luiza to'ladan kelgan, sutga chayilgan kabi opppoq, bo'yama bo'lsa-da, qora qosh. Biroq ko'zlari moviy, sochlari sarg'ishtob. Mamadi bova o'risning qishloqcha gapirishini o'shanda ko'rdi, «ena» dedi Orziposhshaga. Hech kim chol-kampirni aybsitmadi, shunda ham boshini xam qildi ota. Uningcha, yolg'iz o'g'il padarining uyini tashlab ketishi jinoyat edi. Ish ota-onadan ustun kelibdimi? O'ris kelin qishloqda yasholmasa, nega tegdi?

Lekin xafaligini birovga sezdirmadi. Bolam shaharlik bo'ldi, deb to'ylarda maqtandi.

Maqtandi-yu o'g'lidan yarim judo bo'lganini o'ylab, ichi muzladi.

Kampiriga-ku taraf yo'q. Umr bo'yi sirililigicha yashadi shu mushtipar. Davlat mulkini o'g'irladi, deb Mamadi bovaga tuhmat qilishganida ham dushmanlarni qarg'amadi. Shubhaga borgan Mamadi bova «Orzi, sen ham meni o'g'ri hisoblaysanmi?» deb so'raganida, hayrat va alam bilan boqqan edi.

«Sizni o'g'ri desam, hatto xayolimdan

o'tkazsam ikki dunyom kuysin», degandi u.

Bir paytlar «Rayonda Amerikaning josus ayoli bor ekan, qishloqi o'zbek qiyofasida yashab yurganmish, «maqsad-bemaqsad» bunyod etilgan harbiy qismning tagida qit'alararo uchiriladigan raketa bormish, shuni poylarkan» kabi mishmishlar bolalab qolgandi.

Qishloq erkaklari bir-biriga «O'sha josus sening xotining bo'lib chiqmasin» deb hazillashishi avj oldi. Ko'pchilik Mamadi bovaning sirli kampirini hazil nishoniga aylantirishdi. Agar Amerika josusi qishloq ayoli qiyofasida bo'lsa, Orziposhsha kampirdan boshqasi o'xshamas ekan. Qaysidir to'yda kulgi-mutoyiba avjiga chiqqanida, kolxoz raisning o'zi ham hazilga aralashdi:

— Mening xotinim, — dedi u, — o'ris tilini biladi, tan olaman, lekin oramizda anglis tilidan xabardor ayolning eri o'tiribdi-yov. — Shunday deb u hammani Mamadi bovaga qaratdi. — Momom anglischani biladimi, yo'qmi, to'g'risini ayting.

— Anglischani deyapsanmi? Qiziqmisan, o'zbekchani tuzuk bilmaydi-ku. O'n gapirsam bir javob olaman. — Ammo Mamadi bovaga hazil botib ketdi: — Rais bo'lib topgan gapingni qara-yu!

— Rayondan eshitib keldim, sening kalxo'zingdan, deyishdi. Momo bir zamonlar Registonga borganda bir turistga «senkyu» deganini eshitganlar og'izlari ochilib qolgan, guvohlar tirik. Chaqirtirib kelaymi?

Davrada kulgi ko'tarildi. Chollardan biri:

— Bizning kalxo'zdan bo'lsa, Mamadining
kampiri ekanligi aniq, — dedi. — Chunki otasi
o'qimishli inson bo'lgan, Germonda yashab
kelgan, deb eshitganman. Lekin «KGB» ikki
dunyodayam tutolmaydi, Orziposhsha tiliga,
yurish-turishiga shunday ehtiyochilki, ortiqcha
gapirganini bir marta eshitmabman, bir
marta-ya! Shu ko'yi o'lib ketsam kerak.

Hazil tagi zilga aylanmasin, deb rais gapni
boshqa chollarga burdi, ammo Mamadi bova
ichidan zil ketdi. Bir oycha o'ziga kelolmay
yurdi. O'shanda xotinini zimdan kuzatib,
«anglischani biladi-yov» deya gumonsirardi.
Amerika bilan qaerda gaplashishini o'ylab
o'yiga yetolmas, tez-tez kelib yuradigan
elektrikdan — sariq sochli o'ris yigitdan —
gumonsirardi. «Balki u o'ris emas, anglisdir,
men farqini sezarmidim, bari bir xil bo'lsa!» —
derdi shayton ko'ngli.

Yigirma yilcha muqaddam qit'alararo
uchiriladigan raketaning qaerda joylashgani
josus tufayli xalq orasida yoyilib ketgach,
allaqayoqqa ko'chirib ketishdi. «Stakan» deb
atalmish qudug'iga birov ikkita tuxum
tashlagan ekan, tubiga o'n daqiqada yetib
boribdi. Shunday katta raketani axtargan ayol
yumronqoziq iniga qoqilib, o'lim to'shagida
yotibdimi? Balki so'nggi nafasi yaqinlashganini
sezib, sirlarini aytib ketar? Chol baribir
so'rayolmaydi. «To'g'risini ayt, sho'ro davrida
Amerikaning josusi edingmi?» deb so'rasinmi?

Mana, endi dollar-dollar degan gaplar chiqib qoldi. Oddiy shu qishloq ayoli xufiyalik qilgan bo'lsa, Pentagonning pullarini nimaga sarf qilgan? Bitta sigir sotib olish uchun tiyinlab yiqqan vaqtlari bo'ldiki o'sha zamonlarda.

— Tentakman, — pichirladi chol, — qariganda odamning miyasi suyilib qoladi shekilli?

Boyaqish g'iybatchi, sergap, vaysaqi bo'lmagani uchun aybdormi? Amerika kelib-kelib shu mushtipardan foydalanadimi?

Kechasi mashinaning ovozi eshitildi. Mamadi bova derazadan mo'ralagandi, chiroqlar ko'zini qamashtirib yubordi. O'g'li kelgan edi. U onam uxlab yotibdi, deb o'ylab otasi bilan shivirlab so'zlasha boshladi. O'zi bilan shahardagi eng mashhur shifokorni ham olib kelgan ekan, bemorning uyg'onishini kutmay darrov tekshira boshladi.

O'g'li bundoq qarasa otasi qo'lida kalit ushlab turibdi.

— Ota, kalit nimaniki? — imladi Zavqiddin.

— Eh, biron joyga ilib qo'ymoqchiydim-a.

Boyagina enang bergandi, sandig'ining kaliti...

Toza tushkunlikka tushib qolgan...

Shu payt Orziposhsha momo:

— O'g'li-i-m... — deb cho'zib ovoz berdi.

Hamma uning boshida uymalashdi. Shifokor so'zsiz-so'roqsiz ish bilan band edi. Bir necha daqiqadan so'ng Kaputning gaplarini buning-da og'zidan eshitajagiga Mamadi bovaning imoni komil bo'ldi. Haqiqatan eski gap takrorlandi. Mamadi bova o'nta kampiri o'lib

o'rganib qolgandek xotirjam eshitdi.

— O'g'lim, — dedi yana Orziposhsha momo.

U hozircha tirik hisoblansa-da, bu oxirgi so'zi

edi. Tong otdi. Janozaga tayyorlana

boshladilar. Yuz-ko'zlarga qayg'uli tus berildi,

eshik-derazalar artildi, yigitlar o'tinlarni bir

chetga taxlashdi. Tadorigni ko'rib, Orziposhsha

momoning qulaganini, o'limi yaqinligini

eshitmaganlar ham tushunib olaverishdi.

Luiza bolalari bilan qorasini ko'rsatganida

kampirning joni hali uzilmagan edi. Zavqiddin

pichir-pichir qilib olgach, shaharga — ishga

jo'nadi. Harqalay «Enam o'lsa chaqirasizlar»,

demadi. Shu kuni o'ris kelinga bitta ham ish

topilmadi. U xuddi shaharlik bo'lib tug'ilganiga

pushaymon yeyayotgandek nuqul uzun-uzun

barmoqlariga tikilar, sarg'ishtob sochini

yig'ishtirar, dam-badam labini tishlardi. Shu

o'tirishi nafaqat qishloqqa, butun Markaziy

Osiyoga yarashmay turardi. Tezaklar

taxlangan tandirxonaga qarab-qarab

qo'yganda ko'zlarida qo'rquv zohir bo'lishigina

samimiy edi uning.

Nevaralar buvijonning boshida bir qator

tizilishib o'tirdilar. Kattasining bo'yi ancha

cho'zilib qolgani bois Orziposhsha momo

«Nega bu tik turibdi?» deb ajablanib qarab

qo'ydi.

Jon uzilar chog'ida Mamadi bova ham boshida

edi. Kampiri boyaqish yana sandiqqa ko'z

tashlagandek tuyuldi. So'ng bir nima dedi va

barcha tiriklarga nasib etadigan qismatga —

o'limga yuz tutdi. Yurak urishi to'xtadi, shu
bilan birga lablar pirpirashi, kipriklar
qaltirashi, ko'kish tomirlardan bilinib-bilinmay
oqayotgan qon — barchasi abadiy qotdi.
Shaharlik nevaralar ovoz chiqarib yig'lashni
bilmasdilar, qo'shni xotinlar boshlab berishdi:
— Shunday yaxshi enamiz bor edi-ya!.. Uvv...
uvv...

Qanchalik g'alati bo'lmasin, odamning kulgisi
qistardi. Ko'pchilikning nazarida, yoshini
yashab bo'lgan kampir vafot etgan bo'lsa,
buning motamlik siyog'i qolmagan edi.
Mamadi bova «Men go'r kavlab kela qolay»
degan kabi indamay eshikka yurdi. Shunda
ko'zlari o'z-o'zidan devordagi mixga qadaldi:
kampir bergan kalit jonsiz osilib yotardi.
Shunda kampirining butun sir-asrori sandiqda
yashiringanini tushunib, kalitni yulib oldi va
cho'ntagiga berkitdi. «Avval men ochaman!..»
Chol umri mobaynida necha-necha odamni
go'rga qo'yishda ishtirok etgandi,
kampirinekiga ruxsat berishmadi.
Kelganlarning ta'ziasini qabul qilib, chollar
bilan darvozada o'tirish kerak emish. Biladi,
ko'zi qizarib ketgan. Ovoz chiqarib yig'lashga
uyalib, nuqul yerga qaraydi.
Urf-odatga ko'ra marhumaning buyumlarini
ayollarga tarqatish kerak edi. Hadeganda
sandiqlarning kaliti topilmagach, ayollar Mamadi
bovaning huzuriga borishdi.
— Momom sandiqlarning kalitini bergan ekan,
qaerga qo'ygansiz?

— Bugun shartmi shu? — jerkib berdi chol
xotinlarni. — O‘zimning ham ba‘zi narsalarim
bor, xudoyida ochaman, ertaga.

Tunda taxmonni tushirib, kalitni buradi.

Sandiq qulfi jag‘idan ayirilgan kabi o‘limtik
holga tushdi. Qopqoq ko‘tarildi. Choynak-
piyolalar, yaltiroq klyonkalar ichidagi ro‘mollar
va ko‘ylaklik matolar, mayiz, yong‘oq. Mamadi
bova gumonchil xayollaridan dili ezilib,
narsalarni bir-biri ko‘zdan kechirdi. Hammasi
kampiri haqida so‘zlardi. Birontasiga sirning
bir misqoli ham yuqmagandi. Eng tagida soat
turgan ekan. Sifatsiz qog‘oz qutidagi devor
soati, kartoni mayishgan. Uni ham qo‘lga olib
bir nafas ma‘nosiz tikilib qoldi. Ichini ochdi.
Batareykasiz, yap-yangi, arzon xitoy soati edi.
Endigina joyiga qo‘ymoqchi edi, sandiq
burchagida yotgan konvertni ko‘rib qotib qoldi.
Sarg‘ayib ketgan maktub ancha yillardan beri
saqlanayotganga o‘xshardi. Shart qo‘lga oldi-
yu qo‘yniga tiqdi. U barchasini yolg‘iz o‘zi
bilishni istardi. Bir amallab ko‘zoynagini topdi
va lampaga yaqinroq surilib, hijjalab o‘qishga
tushdi:

«Xudo menga farzand bermadi, — deb
boshlanardi maktub, — bittayu bitta bola
so‘radim. Sho‘rim qisib erim ham qamaldi-
ketdi. O‘g‘ri bo‘lgandan keyin bir kun kelib
qamalishi kunday ravshan edi. Qaysi o‘g‘ri
qo‘lga tushmagan? Qaysi o‘g‘ri qamalmay
qolibdi?

Xayrlashar chog‘ida ko‘nglini ko‘tarish uchun

«Bo'yimda bor» deb aldadim. Aslida men —
shum xotinda reja bor edi, yolg'on bir tadbir
o'ylagandim. Eh, bu yolg'onim necha yilda
ochilar ekan, o'ttiz yildami, qirq yildami?
Ishqilib, men ham, erim ham o'lib
ketganimizdan so'ng ochilsin, deb xat yozib
qo'yishga ahd qildim. Qiyomatgacha yolg'onchi
bo'lishdan Xudo asraydi, xatimni bir kun kelib
baribir birov o'qiydi.

Ro'zg'or ham azobdan iborat bo'lib qoldi. Yer
chopaman, go'ng tozalayman, o'tin yo'q, soy
bo'yiga tushib, tezak teraman. Qayishadigan
odamlar ham bor, umridan baraka topgurlar
chin dildan yordamlashadi. Lekin biz paxta
odamimiz, bularning bari paxtadan keyingi
tirliklar. Azob desam, azob emas farzandsizlik
oldida. Shunday qilib, o'ylagan tadbirim bola
asrab olish edi. Erim qamalgach, o'zimni
og'iroyoq ko'rsatib yurdim. Go'yoki erim
qamoqqa tushganda bir oylik homilam
bo'lgan, yetti oylik qilib «tug'ib oldim».

Shahardagi bolalar uyidan chaqaloq olib
kelganimni enamga ham sezdimadim.

Aytdim-ku men shumman deb. Umidim yana
Yaratgandan. Ishqilib o'g'lim bizlarga
o'xshasin-da! Yillar o'tdi, bo'yi o'sgan sayin
asrab olgan odamlarga tortdi, yuzim yorug'
bo'ldi. Otasining oldiga, qamoqxonaga olib
borganimda bechora suyunardi, «Men ham
otaman» deb ko'ragiga urardi.

Gunohlarimni O'zing avf et! Men bir osiy
bandangman. O'lganimdan keyin shu xatni

topib haqiqatni bilsinlar... 1970 yil...»

Mamadi bova sixga tortilgandek qimirlamay
o'tirardi. Ko'zidan bir tomchi yosh dumalab
sarg'aygan qog'ozga bodrab tushdi.

«Buni baxtsizlik desa bo'ladi, — derdi ichki
ovozi, — buni qiyomat desa yarashadi... Voy
Orziposhsha-ey... Shuncha yil bilmabman-a?
Mening hech kimim yo'q ekan-ku bu dunyoda!
Sezgandim-a bu bola nega biznikilarga
uylanmadi, shahardan beri kelmaydi deb! Qon
tortmas ekan-da, qon tortmas...»

Ota-onasidan xabar olmaydigan jamiki
farzandlar aslida qoni begona tashlandiqlar
bo'lib tuyuldi boboga. Lablarida achchiq kulgi
o'ynadi. Marhum kampirini tuzukroq
so'kolmadi, la'natlayolmadi. Biroq maktubni
g'ijimlab tashlar ekan:

— Bunaqa xotin bo'guncha talog'ingni
so'ramaysanmi, Orzi? — dedi. — Amerikaning
josusi bo'p chiqqaningda mingdan-ming rozi
edim-a... attang...

Choshgohda xotinlar sandiqni titkilab ko'rishib
elga tarqatiladigan buyum topisholmadi, bari
yangi, kiyilmagan narsalar edi. Mamadi
bovaga kalitni tutqazishgandi, o'rnidan zo'rg'a
turdi-da, hassaga suyanib, narigi xonaga
chiqib ketdi. Kayvonilar bir-biri bilan ko'z
urishtirishdi. Ular cholning hassa tutganini ilk
marta ko'rib turishlari edi, arazlashini ham
kutmagandilar, albatta.

Kalit Luizaga topshirildi. Luiza

Shveytsariyadagi po'lat sandiqning kaliti

bo'lganida, ehtimol, kamoli ehtirom ila olgan
bo'larmidi, ammo hozir uning-da asablari
charchab, necha kundirki shahardagi chala
qolgan ishlarida edi xayoli.

Harholda ketish oldidan kelin qaynotasining
izzatini joyiga qo'ydi. Qo'shnilarning ichidan
doimiy qarovchi topdi, yakshanba kunlari
xabar olgani kelishlariga va'da berdi. Oxirida:

— Ota, — dedi moviy ko'zlari namlanib, —
bilaman, biz bilan shaharga ketmaysiz, lekin...
lekin nega begonalarga qaragandek... bizdan
xafasiz... Axir o'g'lingiz ham, men ham
ishimizni tashlolmaymiz, nevaralaringizning
kelajagi uchun ham shaharda yashashimiz
kerak. Qishloqdan qatnaylik desak, yuz
kilometrdan ziyod. Har kuni ikki yuzdan ortiq
yo'l bosishning o'zi bo'lmaydi, katta yo'lgacha
o'n besh kilometr o'nqir-cho'nqir...

— Odamning qadri kilometrlab o'lchanmaydi,
— dedi Mamadi bova.

Boshqa hech nima demadi. Kayfiyati yo'qligini
judolikning ta'siri deb o'ylashdi.

Kun o'tgan sayin qurib boraverdi. Dardini na
Zavqiddinga, na oqsoqollarga aytdi.

Ma'rakalarga kelgan chollar «Orziposhshani
mozorotning bog' tomoniga qo'yishibdi,
do'nglik to'lib qolganmish» deganlarini
eshitgan edi. Demak, yangi o'lik uning yonidan
joy oladi.

Momoning «qirqi»dan keyin Mamadi bova
butunlay yotib qoldi. Kaputni chaqirib
kelishgandi, tekshirib bo'lgach, qishloq ahliga

qarab, qo'llarini «iks» qildi va past ovozda:

«Gitler kaput», deb o'rnidan turdi. Etagini
qoqdi.

Kuni bitgani el-ulusga ma'lum bo'lib, yosh-qari
vidolashgani tez-tez kelaverdilar. Chol so'nggi
kuchini to'plab:

— Meni Orziposhshaning yoniga qo'ymanglar,
boshqa joyga ko'minglar, — dedi-yu bandalikni
bajo keltirdi.

Luiza ma'rakalardan charchadi. Biriniki zo'rg'a
xotima topganda ikkinchisidiki boshlandi.

Biroq ichida allaqanday xotirjamlik hukm
surar, eridan o'rgangan savob otliq ishlarni
qilgisi, qishloqliklar oldida yuzi yorug' bo'lgisi
kelardi. Ko'rinmas zanjirlardan xalos bo'lgan
insonlarga shunday baxtiyor va savobchil
bo'ladilar.

Mamadi bovaning xudoyisi kuni uy to'riga bir
notanish kampir kelib o'tirdi. Uni faqat
yetmishdan oshganlaru g'iybatchi xotinlarga
tanidilar. Bir zamonlar Orziposhsha momo
ishlagan kolxozda bu ham ishlab ketgan ekan.
Ayollar tarqay boshlagach, u ham yo'lga
otlandi. Eshikka yetib, sekingina xonadon
kelinini surishtirdi.

— Men, — dedi Luiza.

— Qizim, qaynonangning xudoyisiga keldim
desam qaynotangnikiga kepman. Bu yerlardan
ko'chib ketganmiz, eshitmabman, yo'l uzoq.
Endi-i, senga bir iltimos bor, kulmaysan,
bolam. Burungi zamonda qaynonangga bir xat
bergandim, saqlab qo'ying deganman.

Qaynonang sirni qattiq saqlaydi. Besh yillar
avval rahmatlini uchratganimda sandiqda
yotibdi, degandi. Shuni olib bersang. Mening
ham poymanam to'lgan. Xatni o'g'limga
qoldirib ketsam, devdim. Bitta-yu bitta o'g'lim
bor, asrandi bo'lsa ham juda ham mehribon,
xuddi men tuqqandekman... Uni... uni asrab
olganimda, cholim qamoqda edi. «Bo'yimda
bor», deb cholimni aldaganman. Hatto
enamga ham aytmaganman chaqaloqni aslida
asrab olganimni...

Kelin harchand urinmasin, maktubni hech
qaerda topolmadi. Mehmon kampir esa yo'lda
qon bosimi oshib o'ldi. Sir sirligicha qolib,
abadiyatga muhrlab qo'yildi.